ISSN 2181-3187

MUSTAQILLIK DAVRIDA MAQOM SAN’ATIGA BO‘LGAN E’TIBOR

Baratova Zulfizar Ibroxim qizi,

O‘zMPU “Musiqa ta’limi va san’at”

mutaxasisligi 1- bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Qodirov Davron

Kabulovich, O‘zMPU “Musiqiy ta’lim” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqilligi davrida maqom san’atiga bo‘lgan e’tibor, uning rivojlanish bosqichlari hamda ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maqom san’atining milliy madaniyatdagi ahamiyatini ochib berish, uning davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanishini asoslash va yosh avlod tarbiyasidagi rolini ko‘rsatishdan iborat. Maqolada tarixiy, qiyosiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Natijada maqom san’ati nafaqat milliy meros, balki zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Kalit so‘zlar: Maqom san’ati, mustaqillik, milliy meros, musiqa ta’limi, estetik tarbiya, ijrochilik, madaniyat.

ВНИМАНИЕ К ИСКУССТВУ МАКАМА В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: В данной статье анализируется внимание к искусству макома в период независимости Узбекистана, этапы его развития и роль в системе образования. Основная цель исследования - раскрыть значение искусства макома в национальной культуре, обосновать его поддержку на уровне государственной политики и показать его роль в воспитании молодого поколения. В статье использованы исторический, сравнительный и

ISSN 2181-3187

аналитический методы. В результате было научно обосновано, что искусство макома является не только национальным наследием, но и важной составляющей современного образовательного и воспитательного процесса.

Ключевые слова: Искусство макома, независимость, национальное наследие, музыкальное образование, эстетическое воспитание, исполнительство, культура.

ATTENTION TO MAQOM ART DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE

Abstract: This article analyzes the attention paid to the art of maqom during Uzbekistan's independence, its developmental stages, and its role in the education system. The main goal of the study is to reveal the significance of maqom art in national culture, substantiate its support at the level of state policy, and demonstrate its role in the upbringing of the younger generation. The article uses historical, comparative and analytical methods. As a result, it has been scientifically substantiated that the art of maqom is not only a national heritage but also an important component of the modern educational and upbringing process.

Keywords: Maqom art, independence, national heritage, music education, aesthetic education, per-formance, culture.

Musiqa san’ati insoniyat ma’naviy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u millatning ruhiy dunyosi, estetik qarashlari va tarixiy taraqqiyotini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek xalqining boy musiqiy merosida maqom san’ati alohida o‘rin tutadi. Maqom nafaqat musiqiy janr, balki chuqur falsafiy va estetik mazmunga ega murakkab san’at tizimi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida milliy madaniy merosga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortdi. Natijada maqom san’atini o‘rganish, tiklash va rivojlantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda maqom san’ati nafaqat milliy qadriyat sifatida, balki jahon madaniy merosining muhim qismi sifatida e’tirof etilmoqda.

ISSN 2181-3187

Arabcha maqom (o‘rin, joy, tovush, parda, daraja va hokazo, ko‘plik shakli maqomot) atamasi o‘tmishda turli ma’noda ishlatilib kelingan. «Musiqa istilohida esa maqom – musiqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigan o‘rni, ya’ni pardalardir. Maqom – ma’lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma’nosini ifodalab keldi» Maqom san’ati X asrda ilm-fan va madaniyat markazlarida rivojlanib, o‘zining shakllanib boruvchi tuzilmasini mustahkamladi. O‘rta asrlarda, ayniqsa, Samarqand va Buxoroda ilmiy va madaniy rivojlanish, shu jumladan musiqiy san’atda katta yutuqlarga erishildi. Maqomlar musiqiy notalar, tavsiflar va strukturaviy o‘zgarishlar asosida tizimlashtirildi. Bu davrda maqom san’ati an’anaviy shakllarga ega bo‘ldi va u faqat diniy marosimlarda emas, balki saroylarda, she’riyatda va zamonaviy san’atda ham keng tarqaldi. Xususan, IX-XII asrlar maqom san’ati tizimi rivojlanib, u ko‘plab shakllarga ega bo‘ldi. Ushbu davrda maqomlarning xususiyatlari aniqlanib, ularning ijrosi musiqiy ta’lim orqali uzluksiz avlodlarga o‘rgatildi.

O‘zbek maqom san’ati o‘z ildizlarini qadimgi davrlardan, ya’ni xalq qo‘shiqlari, epik dostonlar va diniy musiqalar bilan bog‘liq tarzda rivojlantirgan. Islom sivilizatsiyasining tarqalishi bilan musiqa madaniyati yanada boyigan va ijtimoiy hayotda mustahkam o‘rin egallagan. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lishi natijasida maqom san’ati ham taraqqiy etgan. Bu davrda Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda musiqa ilmi rivojlanib, bastakorlar va sozandalar tomonidan ilk maqom tizimlari shakllana boshlagan. Erta davr (IX-XII asrlar) Ushbu bosqichda maqom san’ati xalq musiqa an’analari va diniy ohanglar ta’sirida rivojlangan. Bu davrda Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi olimlar musiqiy nazariyalar yaratib, maqom tizimining ilmiy asoslarini ishlab chiqqanlar.

O‘rta asrlar (XIII-XVI asrlar) Bu davrda maqom san’ati murakkab musiqiy tuzilishga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida musiqa san’atiga alohida e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy maqom san’ati haqida o‘z asarlarida fikr

ISSN 2181-3187

bildirgan bo‘lsa, Hofiz Tanburi, Ustod Shodiy kabi san’atkorlar maqomlarni mukammallashtirgan. Shu davrda maqom ijrochiligi saroylarda keng tarqalib, maqom ansambllari tashkil etilgan. Yangi davr (XVII-XIX asrlar) Ushbu davrda maqom tizimlari shakllanib, o‘zining an’anaviy ko‘rinishini oldi. “Shashmaqom” tizimi aynan shu davrda yozib olingan va mustahkamlangan. Buxoro amirligi va Xiva xonligida maqom san’ati rivojlanib, hofiz va sozandalar tomonidan yangi yo‘nalishlar kiritilgan. Xususan, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘nalishlari shakllanib, o‘ziga xos uslublar vujudga keldi. XX asr va hozirgi davr Sovet davrida maqom san’ati professional darajada rivojlantirildi. Usta Shodmon, Yunus Rajabiy kabi san’atkorlar maqomlarni saqlab qolish va rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Mustaqillik yillarida esa maqom san’atiga e’tibor yana-da kuchayib, u milliy meros sifatida e’zozlanmoqda. “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘nalishi” UNESCO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi.

Maqomlarni o‘rganar ekanmiz, uning o‘ta mukammal darajada tuzilganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Hozirgi kunda maqom san’atiga juda katta ahamiyat qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi “Maqom san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 940-sonli qarorida Farg‘ona, Xorazm va Buxoro viloyatlarida ixtisoslashtiritilgan maqom maktabinternatlari tashkil etish to‘g‘risida bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan. Prezidentimizning 2023-yilning 22-dekabr kungi kengashining kengaytililgan yig‘ilishida ma’naviyat va ma’rifat sohasida 9 ta yo‘nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning beshinchi yo‘nalishi maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish. Maqom va baxshichilik, Katta ashula, atlas va adras kabi an’analarini davom ettiradigan maktablar yaratilishi haqida gapirib o‘tdi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan muntazam ravishda Xalqaro va Respublika miqyosida Yosh maqomchilar, Yoshmaqom ijrochilari tanlovlari o‘tkazib kelinmoqda. Biz kelajak avlod maqomlarni mohirlik bilan o‘rganib kelajakda bu maqomlarni dunyo bo‘ylab jahonga tanitish va ularga maqomlarimizni o‘rgatish va kichik sayohatlar bilan maqom kechalari tashkil etish va bilimga chanqoq, maqom sevar, do‘stlarimizga

ISSN 2181-3187

o‘rgatish bu biz kelajak avlodning maqsadlaridan biri desak mumkin. Maqomlarimizni mukammal darajada o‘rganish va ularni dunyoga tanitish bizning qo‘limizda ekanligidan juda ham xursandmiz. Maqomlarimizni jahon madaniyati uzra yuksak cho‘qqilarga ko‘tarish – biz kelajak avlodning qo‘lida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Is’hoq Rajabov “Maqomlar”. San’at nashriyoti, Toshkent, Mustaqillik maydoni, 64- bet

2. Is’hoq Rajabov. Maqom asoslari. Yangi asr avlodi, Toshkent 2019, 131-bet

3. Otanazar Matyoqubov. Maqomot. Musiqa, Toshkent 2004, 5-bet

4.https://journalss.org/index.php/ust/article/download/15717/15115/30088

5.https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-maqom-san-atining-shakllanishi-va-rivojlanish-bosqichlari